

OILAVIY ETIKETDA OTA-BOLA MUNOSABATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergasheva Gulnoz Xaydarovna
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzandlarning ota-onalariga bo'lgan hurmat-e'tibori, ularga qiladigan muomalalari turli asarlarda va xalq maqollari asosida tushuntirib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fikrlar, og'zaki ijod, donishmand, muomalal, qadimiy, izzat va hurmat.

O'zbek milliy mentalitetiga ko'ra, oilaviy nutqiy etiket deyilganda, eng avvalo, farzandlarning ota-onalariga bo'lgan hurmat-e'tibori, ularga qiladigan muomalalari nazarda tutiladi. Chunki quyidagidek qadimiy xalq maqol va matallari, qo'shiqlari orqali ota-onaga hurmat masalasi farzandlarimiz qon-qoniga singdirib yuborilgan: "Ota rozi – xudo rozi", "Ota o'g'il bo'lsang, ota nomin baland tut", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" (O'zbek xalq maqollaridan), "Ey o'g'il, haddingda tur, Otang seni sotganda ham..." (Qo'shiqdan). Xalq og'zaki ijodi durdonalaridan quvvat olib yozilgan Sharq mumtoz pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri bo'lgan Kaykovusning "Qobusnoma" asarida bu mavzuda shunday fikrlar keltirilgan: "EY FARZAND, bilg'ilki, aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli OTA va ONAdir... shul vajdin ota-onangni sag'al ham ranjitmag'il..."[1].

Oilaviy etiketda ota-bola munosabatining o'ziga xos xususiyatlari haqida qanchadan-qancha fikrlar aytilgan shunga yarasha qog'ozlar qoralangan. Ayniqsa, dunyoda "Sharq donishmandligi" nomi bilan mashhur bo'lgan hazinaga asos solgan ajdodlarimizning bu borada qoldirgan meroslari behisobdir. Ammo har qanday g'oya, har qanday hikmatli fikr ham tez-tez takrorlanib, eslab turilgan taqdiridagina avloddan avlodga etib boradi va xalqqa xizmat qiladi.

Ayniqsa, buyuk o'zgarishlar yuz berayotgan, Yangi O'zbekistonni bunyod etish sari dadil qadamlar tashlanayotgan bugungi kunda ajdodlar qoldirgan o'gitlarga quloq tutish, ularga tayangan holda ish yuritish g'oyatda muhimdir: "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar" (Abdulla Qodiriy) axir! Kitoblarda zikr qilinishicha, ota-onaning farzandda saksonta haqqi bor.

Ulardan qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi ular olamdan o'tgandan keyin farzandlar tomonidan ado etiladigan haqlardir. Tiriklik chog'idagi qirqta haqning o'ntasi tilga, o'ntasi tanga, o'ntasi dilga va yana o'ntasi molga taalluqlidir. Tilga taalluqli bo'lgan o'ntasi shundan iboratki, avvalo, ularga muloyim muomala qil va doimo tavozeda bo'l. Ikkinchi, ularga baland ovoz bilan gapirma. Uchinchi, ularga ko'p gapirma va qo'pollik qilma.

To'rtinchidan, ularning otini aytib chaqirma. Beshinchi, ular gapirayotganlarida so'zlarini bo'lma. Oltinchi, ularning aytganlarini rad qilma. Yettinchi, ular falon ishni qil desalar, yo'q deb javob qilma. Sakkizinchidan, ular qichqirib gapirsalar ham, sen qichqirma. To'qqizinchi, ularning gaplariga oh, uf deb xitob qilma. O'ninchi, ularning gaplarida xato

bo'lsa, sen to'g'ri bo'lsang ham e'tiroz qilma. Tanga taalluqli bo'lgan o'nta haqning eng muhim jihatlari shundan iboratki, ota-onaga doimo hurmat ko'zi bilan qaraladi, qilma deb buyurilgan ishlar qilinmaydi, ular roziligisiz, hech ishga qo'l urilmaydi. Ular o'tiradigan joyga aslo o'tirmagaysan. Ularning oldida ochiq chehra bilan o'tirgaysan. Qovog'ingni solma, ho'mrayib qarama...[2].

Mashhur hofiz – O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozovning bolaligida bo'lib o'tgan quyidagi voqeani uni go'daklik chog'laridan yaxshi bilgan kishilar ehtirom bilan eslaydilar: “Komiljon besh-olti yashar bola payti. Bir kuni otasining hurmatli mehmonlari kelishdi. “Komiljon, o'g'lim, tomga chiqib, mehmonlarning otlariga o't sol!", deb buyuradi otalari. Choy ichiladi, fursat o'tadi, lekin Komiljondan darak bo'lmaydi. Hech kelavermagach, otalari o'g'lini chaqirib izlasalar, besh yashar bola uyining bir burchagida tiqilib, yig'lab o'tirgan emish. Sababini so'rasa, aytibdiki... “Ota, menga mushkul yumush buyurdingiz. Uyda hurmatli kishilar o'tirsa-yu, men tomga – ularning boshlariga chiqib, otlariga o't tashlasam. Bu odobsizlik emasmi?.”[3].

Mashhur hofizni kamolga etkazgan Xorazmda hozir ham esini tanigan yigitlar oila kattasi – otasining oldida, ya'ni u o'tirgan xonada, davrada chordona qurmaydilar. Otasi o'tirgan xonada chordona qurgan farzand o'z padaribuzrukvorining yo'qligini istayotgan va oila kattasi deb o'zini his qilayotgan bo'ladi. Shuningdek, bu vohada bobosi hayot bo'lgan bolalarga o'z otasiga “aka” deb murojaat qilishni o'rgatadilar. Agar bolalar “ota” deb chaqirsalar, bu yosh otaning o'z otasiga, ya'ni bolalarining bobosiga xurmatsizligi deb baholanadi (“Turkiston” gazetasi, 1992, 5-fevral).

Ota va o'g'il munosabati xususida so'z ketar ekan, haqiqiy o'zbekona munosabatlarni o'zida mujassam etgan mashhur “O'tgan kunlar” romanidagi Yusufbek hoji va Otabeklar munosabati beixtiyor yodimizga tushadi va har qanday holatda ham ota hurmatini o'rniga qo'ya olgan Otabek muomalasiga yana bir karra qoyil qolamiz: “O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng, Yusufbek hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi... Anchagina so'zsiz o'tirgandan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi: – O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi, haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik... Otabek ma'lumki, ularning “qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan” ishlarini albatta bilar edi. Shunday bo'lsa ham bilmaganga solindi: – Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas, – dedi. Hoji, o'g'lining bu javobidan erga qaradi va nima deb davom qilishini bilmay qoldi...”[4].

Ajdodlarimiz udumiga ko'ra otaga nisbatan “sen” so'zi qo'llanilmaydi. Otasini “sen”lagan farzand esa do'zaxi hisoblanadi. Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l” dramatik dostonida fikrimizga hamohang quyidagi parchani o'qiymiz: O'zga odam: Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid chol, Taroziyon ne desa shu, ishonamiz-da! Yetti marta haj savobi bo'lmabdi qabul. Yigit: Nechuk endi? O'zga odam: U dunyoda yuz berib qay hol, Otasini sansiragan ekan bir bor ul... “Onam otamning o'zi u yoqda tursin, buyumlarini ham “sizlab” gapirardilar, – deya eslaydi sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov. – “Adangni ketmonlarini yuvib qo'y”, “Adangni soatlariga tegma”, ...Dadamning sharpasi uzoqdan sezilsa, oyim “ana, adanglar kelyaptilar” der, bizlar har qanday sho'xlikni yig'ishtirib, sipo tortib qolardik...” Agar shu narsa “feodalizm” deb atalsa, bunaqa “feodalizm” ning boshidan suv o'girib ichish kerak!”[5].

Musulmon xalqlarida katta yoshdagi kishilarga, ayniqsa, otalarga nasihat qilish odobdan sanalmaydi. Ammo “Aql yoshda emas – boshda” deganlaridek, inson bir umr – beshikdan to qabrgacha o’rganib yashaydi. Zero, “Avval biz bolalarimizga o’rgatamiz. So’ngra o’zimiz ulardan o’rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan, o’z davridan orqada qoladi” (Ya. Raynis). Shuning uchun bo’lsa kerak, amriqolik psixolog Robert Stromning “Qanday qilib buva bo’lish mumkin?” deb atalgan haftalik kursi tezda ommalashib ketdi. Soatiga o’n dollar to’lansa, bas, nevaralar bilan qanday muomala qilish to’g’risida ko’p narsalarni bilib olish mumkin. Ha, inson, u hatto o’z bolang bo’lgan taqdirda ham, g’aroyib bir sinoatki, uning qalbiga har doim ham to’g’ri yo’l topib bo’lavermaydi. Buning uchun bolalarni dunyoga keltirishdan tashqari, ularni bir umr sevish va tinimsiz muloqotda bo’lishga to’g’ri keladi.

Xo’sh, shunday ekan, ota va bola muloqoti qachondan boshlanadi? Ota o’z bolasini qachondan boshlab tarbiya qilishga kirishadi? Bu savol dono xalqimizning bola tarbiyasi haqidagi mashhur rivoyatni yodimizga soladi. Unda aytilishicha, yosh er-xotin to’ng’ich farzandlarini ko’tarib dong’i olamga ketgan ulug’ hakim Ibn Sino huzuriga borishibdi. – Bolamizni qanday tarbiyalash haqida maslahat bersangiz. Toki kamolga etganda xalqqa foyda keltiradigan, e’tiborli kishi bo’lsin, – debdi er. – Qachon tug’ildi? – so’rabdi ulug’ hakim. – Uch oylik bo’ldi, – javob beribdi xotini. – Eh, azizlar, kechikibsizlar, debdi Ibn Sino, – uch oy oldin tug’ilgan ekan. Bola tug’ilishidan to’qqiz oy oldin uning tarbiyasi haqida qayg’urish kerak edi. “Xotinni boshdan, bolani yoshdan” deyishgan axir...[6].

Ha, xalqimizda farzandga mehr-muhabbat, uni qadrlash onada nishona ko’ringan chog’danoq talab etilgan. Chunonchi, homila paydo bo’lgach, muayyan muddatdan boshlab erkakning ayolga qo’pol muomala qilmasligi, achchiq so’z aytmasligi, aksincha, shirin orzular, yaxshi niyatlar, zavqli qo’shiqlar, maroqli latifalar aytib, ayol ko’nglini ko’tarishi shart bo’lgan. Bola tug’ilgach esa qulog’iga azon aytish bilan uning murg’ak qalbiga ilk bor Yaratganning nomi va musulmon ohanglari muhrlanishi udum bo’lgan. Biz o’z dilbandi uchun jonini berishga ham tayyor turadigan bobolar avlodi ekanligimizni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Buning yorqin dalili sifatida ulug’ bobomiz Bobur Mirzo hayotida ro’y bergan bir hayotiy voqeani esga olishimizning o’zi kifoya. ...Hali 47 yoshga ham to’lmagan, shuhrati dunyoga ketgan, xalq orasida “G’oziy” ya’ni, “Yengilmas” degan yuksak unvonga loyiq bo’lgan shoh Bobur o’g’li Humoyunga tabiblarning qarashlari foyda bermayotganligiga aqli etganidan keyin o’g’li uchun o’z jonini qurbon qilishga ahd qiladi.

Bu haqda Boburning qizi Gulbadanbegim shunday yozadi: “Saroyning necha ulamoyi karomlari podsho hazratlarini bu qaroridan qaytishga undadilar. Lekin otam ko’nmadilar... Ko’ngillari ul hazratni oliy qurbonlikka undar edi. Yig’lab, ko’z yoshi to’kayotgan saroy xodimlari orasidan o’tib, Muhammad Humoyun yotgan xonaga kirdilar. Akam to’shakda og’ir isitmada kuyib, xoldan toyib yotardilar. Otam uning boshiga borib, qo’llarini duoga ochdilar.

So’ng vazmin qadam tashlab, uning atrofida uch karra aylandilar. Takror-takror dedilarkim: “Yo, Oллоhi karim, uning dardini menga bergin! Unga kelgan balo menga ursin!..” So’ng hazratning yig’i aralash shu so’zlari eshitildi: “Bergan sadaqam qabul bo’ldi!..

Niyatimga etdim!.. Murodimga etdim!.. Ollohi karim tilagimni qabul ayladi!..” Falakning ishini qarangki, shu tariqa Humoyun sog‘aya, Bobur Mirzo esa betoblana boshlaydi va ikki oy o‘tgach, vafot etadi...[7].

Ha, otalarning bolalar oldidagi burchlari, ularga qiladigan muomalasi ham bolalarning otalari oldidagi burch va qarzlaridan uncha katta farq qilmaydi.

Zero, bugungi bolalar – ertangi otalardir. Abdulla Oripov bashorat qilganidek, hayot deb atalmish “shiddatla tortilgan kamon” ularni ham bir umr bolalik olamiga bog‘lab qo‘ygan emas: Otalar boladan ranjisa ozroq, Gohida shundayin so‘zni deydilar: – Bolam, keksalarni qadrla ko‘proq, Bog‘lab qo‘ygan emas bizni, deydilar.

Keksa dilingizga tushmasin titroq, Otalar, chayqalib turibdi olam. Siz ham bolalarni qadrlang ko‘proq – Bog‘lab qo‘ygan emas, bolalarni ham[8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. 30-б.
- 2.Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1987. 136-б.
- 3.Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш. – Фарғона: Фарғона, 2022. 137-б.
4. Qodiriy A. O ‘tkan kunlar. – Toshkent: Donish chirog‘i, 2019. 135-б.
- 5.Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш. – Фарғона: Фарғона, 2022. 138-б.
- 6.Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш. – Фарғона: Фарғона, 2022. 141-б.
- 7.Сиддиқ Мўмин. Тиллашиш ва диллашиш. – Фарғона: Фарғона, 2022. 136-б
- 8.Орипов А. Сурат ва сийрат. – Тошкент, 1981. 88-б.